



VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Tuxtanzarov I.I

FarDU Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada globallashuv jarayonida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashning dolzarb muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unlashuvi, ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik tashkilotlarining hamkorligidagi ishtiroki, vatanparvarlik tarbiyasining asosiy shakl, usul va tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Maqolada O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid siyosiy-huquqiy hujjatlari, ilmiy manba va tadqiqotlar asosida globallashuv xurujlariga bardoshli, ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishning ilmiy asoslari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, globallashuv, milliy qadriyatlar, ma’naviy immunitet, ta’lim-tarbiya, ma’rifat, fuqarolik jamiyati, mafkuraviy tahdid, barkamol avlod.*

KIRISH

Hozirgi davrda insoniyat texnogen va siyosiy globallashuvning eng yuqori darajasini boshdan kechirmoqda. Dunyo xalqlari hayotida an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi kurash kuchayib, yoshlarni turli g‘oyaviy va mafkuraviy xurujlardan asrash zaruriyati dolzarb masalaga aylangan. Mahatma Gandining mashhur so‘zlari bu haqiqatni ravshan ifodalaydi: o‘z uyiga toza havo kirishini istash bilan birga, o‘sha havo dovul bo‘lib uyni ag‘dar-to‘ntar qilishiga yo‘l qo‘ymaslik zarurligi — globallashuvning ikki yuzli mohiyatini belgilab beradi. Yangi O‘zbekiston ham ana shunday global ziddiyatlardan chetda turishi mumkin emas, shu bois yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Tadqiqotchilar Z. Qodirova, E. Bobomurodov, M. Yuldashev, S. Jo‘raev, G. Tulenova kabi olimlarning izlanishlari hamda N. Temirova, Sh. Ermatov, T. Qurbonov, R. Qurbonov, D. Rahimova tomonidan himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari yoshlar masalasini turli jihatlardan o‘rgangan bo‘lsa-da, globallashuv jarayonida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy masalalar hali yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa ushbu maqolaning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

ASOSIY QISM

Globallashuv va uning yoshlar tarbiyasiga ta’siri. Bugungi kunda insoniyat geosiyosiy va axborot hodisalari jadal sur’atlarda rivojlanib, bir davlatni ikkinchisiga hushyor bo‘lishga da’vat etadigan davrda yashamoqda. Globallashuv jarayonida dunyo xalqlari hayotida o‘z tarixida rivojlangan milliy madaniyatning asl ko‘rinishlarini o‘zgartirib yubora oladigan, xalqqa yot bo‘lgan odat va ko‘nikmalar paydo bo‘lmoqda. Tadqiqotchi I. Ponomaryova tomonidan oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar



shuni ko‘rsatdiki, so‘rovda ishtirok etgan talabalarning 87 foizi OAV va internet orqali kirib kelayotgan g‘arbona yurim-turim, an‘ana va qadriyatlar tobora o‘rnashib qolayotganini, yoshlarning aksariyati xorijiy kanallarda beriladiln turli xil kinofilmlarni tomosha qilishga ishqiboz ekanini ta‘kidlagan. Bu esa yoshlar orasida milliy qadriyatlar va an‘analarga bo‘lgan munosabat o‘zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Bunday salbiy holatlar uchun globallashuv jarayonining o‘zi «aybdor» va «javobgar» emas. Aksincha, bu ko‘proq sub'yektiv omillarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli ham mazkur jarayonning tomoshabinlari sifatida qarsak chalib o‘tirmasdan, milliy mentalitetga yot bo‘lgan madaniyatlarni targ‘ib qilishni chegara lash zarur. Buyuk hind davlat arbobi Mahatma Gandining «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak» degan so‘zlari globallashuvni rad etmaslik, lekin uni to‘g‘ri idora eta bilish zarurligini anglatadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati va nazariy asoslari. Vatanparvarlik tarbiyasi deganda, insonning har tomonlama komillikka erishuvi tushuniladi va vatanparvarlik g‘oyasi bu tushunchaning o‘zagini tashkil etadi. Tahdidlarga bardoshli yoshning asosiy xususiyati — u ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir shaxsdir. Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi asosida shakllanadigan tahdidlarga bardoshlilik muayyan milliy manfaatlar, umumiy maqsadlar asosida shakllanib, yoshlarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta‘sir qilib, ularni mas‘uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi.

Bu tamoyillar Avesto zamonidan boshlab, Sharq va G‘arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurida aks etgan purma‘no fikrlar, Suqrot, Platon, Aristotel, Konfusiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Homid G‘azzoliy, Jalolid din Rumiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi atokli allomalarning g‘oya va ta‘limotlarida ham o‘z ifodasini topgan. Bugungi kunda nafaqat zamonaviy qarashlar, balki ana shunday mutafakkirlarning g‘oya va qarashlarini o‘rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ‘ib etish imkonini beruvchi izlanish va tadqiqotlarga ehtiyoj ortib borayotgani ham aslo bejiz emas.

Davlat siyosati va huquqiy-me‘yoriy asos. 2022-yil 28-yanvarda Prezidentning «Yangi taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni va uning asosida qabul qilinayotgan bir qancha me‘yoriy hujjatlar ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi qaror eng muhim va tayanch metodologik hujjatlar hisoblanadi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz», «Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» kabi asarlari, jamiyat taraqqiyotining ma‘naviy-ma‘rifiy sohalariga oid boshqa qaror va farmonlari ham vatanparvarlik tarbiyasining metodologik asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2018-yil 23-fevraldagi 40-sonli Qarori ushbu yo‘nalishda to‘laqonli tizimli faoliyatni tartibga solishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu hujjat vatanparvarlik tarbiyasini tizimli, muntazam va maqsadli ravishda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy bazani mustahkamladi.



Vatanparvarlik tarbiyasi tizimining tuzilmasi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi bir necha muhim tuzilmalarni qamrab oladi. Birinchi bo‘g‘in sifatida ta‘lim-tarbiya jarayonining asosiy tashuvchisi bo‘lgan bolalar bog‘chasidan boshlab ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘lim muassasalari asos bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchi tuzilma sifatida ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, Qurolli Kuchlar tuzilmalari, mudofaa ishlari boshqarmalari, harbiy qismlar va muassasalar, huquq-tartibot organlari, faxriylar kengashlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilmalari va boshqa tashkilotlar muhim o‘rin egallaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasining tamoyillari va usullari. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta‘lim-tarbiya va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Ilmiylik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlik, faollik, ta‘lim-tarbiya ishlarining uyg‘unligi, tarbiya jarayonining izchilligi — bular vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari hisoblanadi. Tarbiya usullariga kelsak, ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag‘batlantirish hamda o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna kabi usullar yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani shakllantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasining shakllari va amaliy mexanizmlari. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda — ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik tadbirlari, o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida tashkil etiladi. Ma‘ruza mashg‘ulotlari eng ahamiyatli usullardan hisoblanib, muayyan mavzu bo‘yicha ma‘lumotlarni ilmiy-nazariy asoslarda o‘rgatish uchun qo‘llaniladi. Savol-javob kechalari va yakka hamda jamoaviy suhbatlar esa ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlarga muvofiq ravishda jamoaning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kitobxonlik targ‘iboti vatanparvarlik tarbiyasining samarali shakllaridan biri bo‘lib, yoshlarni o‘z yoshiga mos adabiyotlarni to‘g‘ri tanlashga va ularni o‘qish natijasida to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatib boradi. Ma‘lum bir asar to‘g‘risida uni o‘qigan turli yoshdagi kitobxonlarning o‘zaro fikr almashishlari, tegishlicha bahs-munozaralari yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari o‘shishiga yordam beradi. Sport va harakatli o‘yinlar esa jismoniy chiniqish, chaqonlik, epchillik, chidamlilik va sog‘lomlikni shakllantirish va mustahkamlashga, aqliy o‘yinlar esa idrok qilish, tafakkur, mantiqiy fikrlash va qat‘iyatlilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Faxriylar va jamoatchilik bilan hamkorlik. Urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ma‘lum tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lgan faxriylarning xotiralari, jonli hikoyalari tinglovchilar uchun tarixiy reallik bilan tanishish imkonini beradi va vatanparvarlik hissini yuksaltiruvchi kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlari va ekskursiyalar uyushtirish ham bu tarbiya



tizimining ajralmas qismidir: harbiy qismga, turli muzeylarga, tarixiy yodgorliklarga, mustaqillik yillarida bunyod etilgan ziyo ratgohlarga uyushtirilgan ekskursiyalar yoshlarda Vatanga nisbatan g‘urur va faxr tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi.

XULOSA

Globalashuv jarayonining vujudga kelish sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o‘rganish, uning natijalarini tahlil etib, to‘g‘ri baho bera olish hamda ulardan davlat taraqqiyoti yo‘lida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zamon bilan hamnafas qadam tashlayotgan har bir olim va fuqaroning asosiy vazifalaridan biriga aylanmog‘i zarur. Milliy madaniyat va ma‘naviy qadriyatlar shaxsning hayot mazmunini, ma‘naviy yaxlitlikni asrab qolishi, o‘z-o‘zini anglay bilishi va turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida jamiyat va shaxs uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv davrining g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlariga bardoshli, milliy o‘zligini anglagan, tarixiy xotirasini asragan, Vataniga sadoq va kelajakka ishonch bilan qaraydigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash — bu O‘zbekistonning istiqbolini belgilovchi eng asosiy ustuvor vazifadir. Bu vazifani hal etishda ilmiy-nazariy izlanishlarning amaliy faoliyat bilan uyg‘unligi, davlat, jamoa va oilaning birligi hamda barcha ijtimoiy institutlarning hamkorligi qat‘iy zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «Yangi taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2018-yil 23-fevraldagi 40-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli Qarori.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2016. — 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 104 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 592 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnoma. 2020-yil 24-yanvar.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021. — 464 b.
9. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat — engilmas kuch. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. — 176 b.
10. Qodirova Z. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muammolari. — Toshkent: Fan, 2018. — 148